


**ABDULLA
QODIRIY**

(1894-1938)






**Yurtimizda Abdulla Qodiriy asarlari kirib bormagan
birorta ham xonadon bo'lmasa kerak. U faqat
o'zbeklarning emas, balki Turkiston xalqlarining ham
sevimli adibi, ozodlik va istiqlol kuychisidir.**

Islam Karimov

**1894-yil 10-aprelda Toshkent
shahrining Samarqand
darvoza mavzesida
«bog‘bonlik bilan kun
kechirguchi bir oilada...»
tug‘ilgan.**



- ✖ U dastlab eski usul mактабда, со‘ng yangicha xat-savod chiqaradigan rus-tuzem maktabida o‘qiydi.
- ✖ 12 yoshlarida bir boy savdogarga xizmatga yollanib, yozuv-chizuv ishlari bilan mashg‘ul bo‘ladi.




ILK ASARLARI

- ✖ Uning «Ahvolimiz», «To‘y», «Millatimga bir qaror!», «Fikr aylagil» she’rlari,
- ✖ «Baxtsiz kuyov» pyesasi, «Juvonboz», «Uloqda» hikoyalari 1913—1916-yillar oralig‘ida yozilgan va e’lon qilingan ilk asarlaridir.



Eng mashhur asarlari

- ✖ «O‘tkan kunlar» romani
- ✖ «Mehrobdan chayon» tarixiy romani
- ✖ «Kalvak Mahzumning xotira
daftaridan» hajviy asari
- ✖ «Toshpo‘lat tajang nima deydi?»
hajviy asari
- ✖ «Obid ketmon» qissasi



37-YILLAR QATAG`ONI





✗ Abdulla qodiriy ham «**xalq dushmani**» degan tuhmat bilan qamoqqa olinib, uzoq qynoq va so‘roqlardan so‘ng **1938-yil 4-oktabrda otib o‘ldiriladi.**

- ✖ Abdulla Qodiriy birinchi bo‘lib Mustaqillik ordeniga munosib ko‘rildi.
- ✖ Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.
- ✖ Nomi abadiylashtirilib, haykallari barpo etildi. Bu o‘zbek xalqining o‘z buyuk farzandi xotirasiga hurmati bo‘ldi.



“Mehrobdan
chayon” romani





"MEHROBDAN CHAYON" ROMANI

- ✖ “*Xudoyorxon va munshiylari hayotidan tarixiy ro‘mon*”.
- ✖ 1928- yilning fevral oyida asar ustidagi ish intihosiga yetdi.
- ✖ Asar 1929- yil mart oyida Samarqandda bosilib chiqdi.
- ✖ Roman kirish, 57 ta kichik bo`limlar, yakundan iborat.



ЎЗБЕК АДАБИЁТИ ДУРДОНАЛАРИДАН

МЕХРОБДАН ЧАЁН

www.ziyouz.com кутубхонаси



Абдулла Қодирий



Мехробдан чайон



“Ro‘monning mavzusi to‘g‘risida”

- ✖ “Turkiston feodallarining keyingi vakili bo‘lg‘an Xudoyorning o‘z xohishi yo‘lida dehqon ommasi va mayda hunarmand — kosib sinfini qurbon qilishi, mamlakat xotin-qizlarini istagancha tasarruf etishi, bunga qarshi kelguchilar tilasa kim bo‘lmisin, rahmsiz jazo berishi ro‘monning mavzu’idir.
- ✖ Xudoyorning bu yo‘ldag‘i birinchi istinodgohi bo‘lg‘an ulamolar, ularning ichki-tashqi ahvoli, axloqi, madrasa va oila hayoti, ulamoda insoniy his bitkanligi va qolg‘ani ham xabosat pardasi ostida sezilmas darajaga yetkanligi mundarija sig‘dirg‘an qadar bayon qilinadir”...

Abdulla Qodiriy

ANVAR VA RA'NO



Xulosa σ' ruvida. Iztirob kitobi


- ✖ Asarni „Mehrobdan chayon" deb atash, unda ko'proq ziyolilar — madrasa ko'rgan mo'tabar mulla odamlarni qahramon qilib tanlashdan murod, ayrim adabiyot-shunoslar o'ylaganicha, „musulmon ruhoniylarning reaksiyon rolini fosh etish" dangina iborat emas.
- ✖ Aslida muqaddas dargoh — sajdagohdan chiqqan, muqaddas dargohga nomunosib, munofiq, qallob, tuban kimsalarga, ziyoli, ma'rifatli bo'la turib, ilmiga amal qilmay, muqaddas dargohni oyoqosti qiladigan, shaxsiy manfaat, mansab-martaba yo'lida hech narsadan toymaydigan, iste'dodli, halol odamlarni ko'rolmaydigan hasadgo'y, e'tiqodsiz kishilarga ishoradir.
- ✖ „Mehrobdan chayon"dagi Anvar qismatida, uning tevaragidagi fisq-u fasodlar, qalloblar qutqusi bilan Anvar boshiga tushgan kulfat, ko'rgiliklar qahramonning qalb iztiroblari, qalloblarga cheksiz nafrati ifodasida Qodiriyning o'z boshidan kechgan iztiroblari ham aks etgan.

O'YLAB KO'RING!

- ✖ Anvarning hayotidagi o'zgarishlarda opasi Nodiraning o'rni haqida bahslashing.
- ✖ Asardagi: «*Anvarning o'qushdan bo'shang'an kezlari gullar ichida shu kapalaklar orasida kechar edi*» tasviriga tayanib, Anvar tabiatini izohlang.
- ✖ Nigor oyimning maxdumga qarshi yo'l tutishi sababini sharhlang.
- ✖ Ra'noning boshqa qizlarga o'xshamaydigan darajada jasurligi va hamma ayollar kabi hissiyotga mag'lubligi haqida so`zlang.
- ✖ Romanda Anvarning tadbirkorligini namoyish qiluvchi o`rinlar qaysi?
- ✖ Anvar bilan Xudoyorxon o'rtasidagi olishuvga diqqat qiling. Bu «jang»da sizningcha kim g'olib chiqdi?
- ✖ Dor ostidagi Anvar bilan mulla Abdurahmonning to'qnashuvi lavhasiga e'tibor bering. Har ikkisining tabiatiga xos jihatlar tasviri haqida to'xtaling.

BILIMINGIZNI SINANG!

- ✖ 1. Qaysi asar qahramoni “...onasining ” tilab-tilab olg’ani” emas va otasi ham uni “o’g’ilchag’a hisoblamag’an” edi?
- ✖ 2. Anvarning otasi kim edi? – Salim bo’yoqchi
- ✖ 3. Anvarga ism qo’yish vazifasini kim qachon bajardi?
- ✖ 4. Anvar Solih maxdum oilasiga kelganda necha yoshda edi?
- ✖ 5. Saroyda mirzaboshilik darajasiga erishgan Anvarni ko’ra olmagan kimsalar kimlar edi?
- ✖ 6. Roman voqealari rivojida faol ishtirok etgan Anvarning akasi va uning do’stlari
- ✖ 7. Barimta so’zining ma’nosи?
- ✖ 8. “Mehrobdan chayon” romanida Anvar o’limga buyurilgan lavhada kimning harakatini jasorat sifatida baholash mumkin?
- ✖ 9. “...siz ifloslik natijasida kulasiz, men...men to’g’rilik samarasini o’raman. Siz iflos vijdon bilan g’olibsiz, men sof vijdon bilan mag’lubman...”
- ✖ “Mehrobdan chayon” romani qahramoni Anvarning ushbu zaharolud so’zlari kimga qaratilgan?



TOPSHIRIQ.
AMALIY MASHG`ULOT
DAFTARINGIZGA “MEHROBDAN CHAYON” HAQIDA BILGANLARIM
SXEMASINI TO`LDIRING.

“Mehrobdan
chayon”



Abdulla Qodiriyning qizi Anisa aya bilan.

2010-YIL 10-APREL



ABDULLA QODIRIY YASHAGAN UY DARVOZASI

